XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 19-dekabr 733-12-180-Q/24 Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrda “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 731-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrda “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 731-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrda “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 731-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi 450-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3.Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha shahar komissiyasining namunaviy tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi (I.Musayeva) manfaatdor idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda: ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari I.Musayeva zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi  **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 19-dekabrdagi
733-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash bo‘yicha shahar komissiyasining
TARKIBI

1.	*I.Musayeva*	–	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, *komissiyasi raisi*
2.	*Z.Saburov*	–	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
3.	*R.Matnazarov*	–	Shahar madaniyat bo‘limi boshlig‘i
4.	*O.Matkarimov*	–	Shahar tibbiyot bo‘limi boshlig‘i
5.	*S.Yusupov*	–	Shahar sport bo‘limi boshlig‘i
6.	*M.Marimov*	–	Shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
7.	*Z.Atajanov*	–	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘linmasi boshlig‘i
8.	*J.Meyliyev*	–	Yoshlar ishlari shahar bo‘limi boshlig‘i
9.	*D.Abdullayev*	–	Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi boshlig‘i
10.	*S.Matkarimova*	–	Urganch davlat universiteti professori
11.	*X.Baltayeva*	–	Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

12.	*N.Atajanova*	–	Urganch davlat universiteti Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
13.	*F.Atajanova*	–	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali dotsenti, Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
14.	*N.Asmanbekova*	–	Urganch pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
15.	*S.Raximova*	–	Urganch davlat pedagogika instituti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi
16.	*A.Sattarov*	–	Shahar hokimining maslahatchisi
17.	*Sh.Ibadullayeva*	–	Shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi bosh mutaxassisi, *komissiya mas’ul kotibi*